



## TURIZM SOHASI SUBYEKTLARINING SOLIQ YUKI KAMAYISHIGA YO'NALTIRILGAN MEXANIZM

**Abdullayev Zafarbek Safibullayevich**

*Mustaqil tadqiqotchi, Toshkent moliya instituti, Toshkent, O'zbekiston*

*Zafarbek.abdullayev@gmail.com*

*ORCID: 0000-8965-8896-1404*

**Ataniyazov Jasurbek Xamidovich**

*DSc, professor Toshkent moliya instituti, Toshkent, O'zbekiston*

*ORCID: 0000-0002-4758-0781*

## MECHANISM AIMED AT REDUCING THE TAX BURDEN OF THE SUBJECTS OF THE TOURISM INDUSTRY

**Abdullayev Zafarbek Safibullaevich**

*Independent researcher, Toshkent financial institute, Tashkent, Uzbekistan*

*Zafarbek.abdullayev@gmail.com*

*ORCID: 0000-8965-8896-1404*

**Ataniyazov Jasurbek Khamidovich**

*DSc, professor Toshkent institute of finance, Tashkent, Uzbekistan*

*ORCID: 0000-0002-4758-0781*

### **JEL Classification: M4, M42**

**Annotatsiya:** Maqolada turizm sohasi subyektlarining soliq yuki kamayishiga ijobiy ta'sir qiluvchi amaldagi samarali soliq imtiyozlari berish mexanizmi ochib berilgan. Bunda texnik xizmat ko'rsatish va ko'ngilochar maskanlarni tashkil etishga ustuvorlik berish hamda rekreatsion turizm salohiyati yuqori tumanlarda avtomobil yo'llari, infratuzilmani yaxshilash va turizm xizmatlarini rivojlantirish, mehmonxona xizmatlari, avtotransportda yo'lovchi va yuk tashish, transport vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish, ko'ngilochar maskanlarda xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz etib belgilash yuzasidan takliflari inobatga olingan. Xalqaro turizm va uning jahon iqtisodiyotidagi ahamiyatining tahlili makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalarini samarali hal etishda turizm tarmog'ining bir qator ustunlik jihatlari ega ekanligini ko'rsatadi. Zamonaviy sharoitda soliqqa tortish tizimini takomillashtirish va soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yuklamasini optimallashtirish hamda pasaytirishga oid

ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilayotganiga qaramay to'plangan soliq tushumlari turizmga to'liq qayta investitsiya qilinmasligi, va kelajakda tizimda soliq turlarining kengayib borishi, shu jumladan, hududlarning soha bo'yicha soliq salohiyatini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Turizm sohasi subyektlarining soliq yuki kamayish doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan, ayni sharoitda iqtisodiyotda turistik faoliyat subyektlarini soliqqa tortishning zamonaviy tizimi va mexanizmlarini rivojlantirish masalalari kompleks va tizimli tarzda to'liq o'rganilmagan. Ushbu holat tadqiqot ishida tadqiq etilgan ilmiy-amaliy muammolar, ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilab beradi.

**Abstract:** The article reveals the mechanism for granting effective tax benefits in force, which positively affects the decrease in the tax burden of the subjects of the tourism industry. In this regard, proposals were taken into account to prioritize the establishment of maintenance

and entertainment facilities and to establish a social tax rate of 1 percent for business entities providing services for highways, infrastructure improvements and tourism services in high-end districts, hotel services, passenger and cargo transportation in motor transport, repair and maintenance of vehicles, entertainment facilities. Analysis of international tourism and its importance in the world economy shows that the tourism network has a number of dominant aspects in ensuring macroeconomic stability, effectively addressing socio-economic development issues. Despite the fact that scientific and practical research is being carried out on improving the taxation system and optimizing the tax burden on taxpayers in modern conditions, the accumulated tax revenues will not be fully reinvested in tourism, and in the future the system will focus on the expansion of tax types, including the development of the tax potential of regions by industry. despite the scientific research work carried out within the framework of the reduction of the tax burden of the subjects of the tourism industry and the scientific and theoretical research carried out, in the same conditions, the issues of developing the modern system and mechanisms of taxation of subjects of tourist activity in the economy have not been fully studied in a complex and systematic way. This situation determines the level of relevance of scientific and practical problems studied in the prohibition case, proposals and recommendations developed on their elimination.

**Kalitli so'zlar:** turizm sohasi, turizm subyektlari, soliq yuki.

**Key words:** tourism industry, tourism entities, tax burden.

**Kirish.** Globallashuv jarayonining chuqurlashuvi va nostandart iqtisodiy shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda mamlakatda iqtisodiyotni soliq mexanizmlari orqali tartibga solish, soliqqa tortish tizimini optimallashtirish, soliqlarni hisoblash va byudjetga o'tkazish bo'yicha chalkashliklarning oldini olish, soliq yuklamasini pasaytirish orqali barqaror

iqtisodiy o'sishga erishish, soliq imtiyozlaridan faol foydalanish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Dunyo mamlakatlarida turizm sohasini rivojlantirishda soliqlar vositasidan foydalanish borasida qator amaliy tadbirlar olib borilmoqda. Ayni paytda jahon mamlakatlarida byudjet daromadlarini oshirish, soliq stavkalarini pasaytirish va soliq to'lovchilar sonini oshirish evaziga amalga oshirilmoqda. Hozirda, dunyoning sanoati rivojlangan 37 ta mamlakatlarida, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) davlatlarida "iqtisodiyotda umumiy soliq yuki o'rtacha 0,1 foiz pasayib, 33,8 foizni tashkil etgan"[1]. Aynan shu sharoitlarda rivojlanayotgan turizm sohasi mamlakat byudjeti va iqtisodiyoti uchun muhim manbaga aylanmoqda hamda jahondagi investitsiyalarni va yalpi ichki mahsulotning 10%ni tashkil etmoqda.

Iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlarini yaratish, barqaror iste'mol va ishlab chiqarishni ta'minlashda asosiy vositalaridan biriga aylandi. Turizm sohasini jadallashtirish mexanizmlaridan biri sifatida soliq vositalaridan faol foydalanilmoqda. Jumladan, "rivojlanayotgan mamlakatlarning 16 tasida so'nggi besh yil davomida yangi soliq mexanizmlari joriy qilingan, shuningdek, amaldagi soliq imtiyozlari yanada takomillashtirilgan"[2]. Mazkur tendensiya turizm sohasida soliq tizimi va uning mexanizmlarining ahamiyati ortib borayotganligini ko'rsatadi.

Jahonda turizm bozoridagi kuchli raqobatda milliy turizm salohiyatini oshirish, ayniqsa, o'tgan oxirgi o'n yillikda dunyoda shu o'rinda mamlakatimizda bo'lib o'tgan moliyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy xavflar tufayli yuzaga kelgan noqulay iqtisodiy vaziyatlardan chiqish va turizm sohasini tiklash hamda barqaror rivojlanishini ta'minlashda soliqqa tortish tizimi instrumentlaridan samarali foydalanish,

xususan, sohadagi soliq imtiyozlarini maqsadli berilishini, ularning samaradorligi va soliq xarajatlarining natijadorligini baholash asosida mamlakat soliq tizimini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilmogda.

2022 - 2026 - yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida turizm industriyasini jadal rivojlantirish, "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga etkazish, 2026 yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga etkazish, iqtisodiyotda sohaning roli va ulushini oshirish, turizm infratuzilmasini kengaytirish, shuningdek, soliq yuklamasini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish vazifalari kun tartibiga qo'yildi. Shuningdek, O'zbekistonda "...soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish" hamda "iqtisodiyotda soliq yuklamasini kamaytirish, xususan, soliq to'laydigan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida soliq yuklamasi darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish" kabi ustuvor vazifalar belgilab olingan. Zamonaviy sharoitda soliqqa tortish tizimini takomillashtirish va soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yuklamasini optimallashtirish hamda pasaytirishga oid ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilayotganiga qaramay to'plangan soliq tushumlari turizmga to'liq qayta investitsiya qilinmasligi va kelajakda tizimda soliq turlarining kengayib borishi, shu jumladan, hududlarning soha bo'yicha soliq salohiyatini rivojlantirish o'z yechimini topmagan [3,4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-

4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2018 - yil 29 - iyundagi PF-5468-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi, 2019 - yil 5 - yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2020 - yil 19 - martdagi PF-5969-sonli "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora- tadbirlar to'g'risida"gi, 2020 - yil 28 - maydagi PF-6002-sonli "Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonlari, 2018 - yil 7 - martdagi PQ-3514-sonli "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019 yil 10 iyuldagi PQ-4389-sonli "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2018 yil 13 fevraldagi F-5214-son "Soliq qonunchiligini tubdan takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2020 yil 19 iyundagi PQ-4755-sonli "Turizm sohasini sanitariya-epidemiologik xavfsizlikning kuchaytirilgan rejimi talablariga qat'iy rioya qilgan holda rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Material va metod.** Turistik faoliyat subyektlarini hamda turizm industriyasini rivojlantirishda soliqqa tortishning optimal usulini topish, xususan, sohani rivojlantirish uchun zamonaviy soliq imtiyozlari va preferensiyalarini takomillashtirishning

nazariy asoslari ilmiy jihatlarini xorijlik iqtisodchi olimlardan J.Ritchie, G.Crouch, D.Goldberg, A.Easson, E.Toder, B.Wasow, M.Ettlinger, S.James, M.Kubichkova, W.Gentry, R.Hubbard, J.Freebairn, D.Stoilova, B.Nerre, T.Kanina, M.Morozov, I.Balabanov, M.Birjakov, S.Barulin, I.Mayburov, T.Malinina, V.Panskov, I.Aleksandrov, I.Nayburova, N.Milayakov, D.CHernika, O.Beketova, T.YUtina, A.Mishachkovalarning tadqiqotlarida uchraydi[5,6].

Bu boradagi mahalliy olimlardan I.Tuxliev, R.Hayitboev, B.Safarov, G.Tursunova, A.Saidov, B.Turaev, O.Hamidov, E.Golisheva va boshqalarning ishlarida milliy iqtisodiyotda turizm sohasi rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari atroflicha o'rganilgan bo'lsa [6], A.Vahobov, A.Jo'raev, S.Xudoyqulov, Q.Bazarov, M.Usmanova, F.SHamsutdinov, T.Malikov, F.Raxmatullaeva, A.Islamkulov, O.YUldashev, Z.Kurbanov, O.Abduraxmonov, N.Ashurova, B.Sanaqulova, N.Xaydarov, S.Voronin, E.Gadoev, I.Niyazmetov, SH.Toshmatov kabi olimlarning ilmiy ishlarida soliq tizimi va soliqlarning turlari, milliy iqtisodiyotning ba'zi tarmoqlarini rivojlantirishda ularning ahamiyati va samaradorligining umumnazariy jihatlarini bayon etilgan[7].

Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan, ayni sharoitda iqtisodiyotda turistik faoliyat subyektlarini soliqqa tortishning zamonaviy tizimi va mexanizmlarini rivojlantirish masalalari kompleks va tizimli tarzda to'liq o'rganilmagan. Ushbu holat tadqiqot ishida tadqiq etilgan ilmiy-amaliy muammolar, ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilab beradi.

Ushbu maqolada abstraksiya, qiyosiy va tarkibiy tahlil, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, tizimli yondashuv, kuzatuv, iqtisodiy-statistik, ekonometrik usullardan va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

**Natijalar.** Zamonaviy dunyoda turizm jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan sohasidan biri bo'lib, uning iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga bo'lgan yuqori multiplikativ samarasi tufayli jahon iqtisodiyoti va mamlakatlarning milliy iqtisodiyotida sohaning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Turizm qadim zamonlardan ma'lum bo'lishiga qaramasdan, o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab namoyon bo'lgan nisbatan yosh yo'nalish hisoblanadi. O'rta asrlardagi turizmning maqsadi savdo-sotiq ishlari yoki ziyorat qilishga qaratilgan bo'lib, boshqa mamlakatlarga sayohat imkoniyati faqat elita uchun mavjud edi. O'sha davrdagi turizmning maqsadlari: ta'lim olish, haj ziyoratini amalga oshirish, davolanish kabi sohalarni qamrab oldi. O'tgan asrning o'rtalariga kelganda keng ommaga sayyohlikning mavjudligi, shuningdek, sayyohlik sanoatining shakllanishi natijasida ommaviy turizmning paydo bo'lishi qayd etildi. Transport va telekommunikatsiya sohasidagi o'zgarishlar — paroxod va temir yo'l ixtirosi, pochta aloqasi sifatini yaxshilash, yo'llarning kengayishi turizmni rivojlanish tarixida muhim rol o'ynadi. Sayyohlar sonining ko'payishi ularga xizmat ko'rsatish va joylashtirish uchun zarur vositalar yaratishga ta'sir ko'rsatdi, birinchi o'rinda mehmonxonalar, shuningdek, yevropada sayyohlik firmalarining faol o'sishi natijasida maxsus sayohat agentliklari paydo bo'ldi. Ommaviy ijtimoiy voqelik sifatida ikkinchi jahon urushidan keyin shakllandi.

Turizm sohasining tadrijiy rivojlanishi bir qator xorijiy va mahalliy

tadqiqotchi olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ular tomonidan texnik, iqtisodiy va ijtimoiy omillar hamda turizmning maqsadli funksiyalari yuzaga kelishini inobatga olgan holda sohaning rivojlanishi asosan 4 ta davriga bo'lgan holda ajratishadi[9]:


1. Dastlabki davr sifatida qadimiy davrdan XIX asrning boshlarigacha bo'lgan vaqtni ko'rsatishadi. Bu davirda turizm asoslarining yuzaga kelishi bilan izohlanadi;

2. XIX asrning boshlaridan XX asrning boshlarigacha bo'lgan davr. Ushbu oraliqda turizm xizmatlarini ko'rsatuvchi ilk ixtisoslashgan korxonalarining paydo bo'lishi, turizmning hashamatli xizmat sifatida rivojlanishini ko'rsatishadi;

3. Uchinchi bosqich. Ya'ni XX asrning boshlaridan Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davr. Aynan shu davr ijtimoiy turizmni rivojlanishida muhim davr hisoblanadi;

4. Oxirgi bosqich hisobida bo'lgan davr. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillardan bugungi kungacha bo'lgan davr. Zamonaviy ommaviy turizmning rivojlanishi, turizm xizmatlari va mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha tarmoqlararo majmuani qamrab olgan turizm industriyasining shakllanishi (1-rasm).

**1 - rasm. Xalqaro turistlar soni va turizm xizmatlari eksporti ko'rsatkichlarining dinamikasi<sup>1</sup>**



Turizm rivojlanishning dastlabki davrlarida iqtisodiy faoliyatning muhim sohasi sifati qaralmagan va uni rivojlantirish uchun alohida e'tibor qaratilmagan. Vaqt o'tishi bilan soha son va sifat jihatidan rivojlandi, uning iqtisodiy ahamiyati yildan yilga ortib bordi. 1980 yillarga kelib turizmning ahamiyati va uning boshqa ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat turlari bilan o'zaro aloqasi to'g'risida aniq tushunchalar paydo bo'la boshladi[10]. Ushbu davrga kelib iqtisodchilar tomondan turizmni iqtisodiy fenomen hamda jahon va milliy iqtisodiyotlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi e'tirof etila boshlandi.

Turizm sohasini takomillashishining oxirgi to'rtinchi bosqichiga kelib, jahon iqtisodiyotidagi sohaning ahamiyatini muntazam oshib borayotganligi kuzatilmoqda. Xususan, Birlashgan Millatlar tashkilotining Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga asoslanib, 1950-yilda xalqaro turistlar soni yigirma besh million kishini tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib, bu ko'rsatkich 60 barobarga oshdi va bir milliard besh yuz million kishiga yetdi. Turizm xizmatlari eksporti esa 2,1 mlrd. AQSH dollariga yetdi (812 barobarga o'sdi).

<sup>1</sup> UNWTO. (2020). UNWTO World Tourism Barometer, 2008 Edition. Available at: <https://www.e-unwto.org/doi/book/10.18111/9789284424160>, <https://www.e-unwto.org/toc/wtobarometereng/21/2>

Xalqaro turizm va uning jahon iqtisodiyotidagi ahamiyatining tahlili makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalarini samarali hal etishda turizm tarmog'ining bir qator ustunlik jihatlari ega ekanligini ko'rsatadi [11].

Turizm sohasining rivojlanishi turli xizmatlar va tovarlarga bo'lgan talabni oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu orqali turizm va unga turdosh hisoblangan boshqa iqtisodiyot tarmoqlarida taklifni rivojlanishini rag'batlantiradi.

2010-yildan 2019-yilgacha bo'lgan davr mobaynida dunyo bo'yicha xalqaro turistlar soni va mos ravishda turizm xizmatlari eksporti barqaror o'sish ko'rsatkichlarini qayd etdi. Jumladan, 2010-yilda dunyo bo'yicha 973 mln.kishi xalqaro turizmga ishtirok etgan hamda o'zlari tashrif buyurgan turizm maskanida 1099 mlrd. dollar hajmida tovarlar va xizmatlar uchun qo'shimcha talab hosil qilgan. Ushbu ko'rsatkichlar 2019-yilga kelib mos ravishda 1706 mln.kishi va 1500 mlrd.dollarga yetdi, ya'ni har kuni dunyo bo'yicha o'rtacha 4,1 mln.kishi sayohat qilgan hamda ular tomonidan turizm xizmatlari uchun 4,7 mlrd. AQSH doll, sarf qilingan.

2019-yilda boshlangan koronavirus pandemiyasi turizm sohasiga iqtisodiy zarba berdi va o'z navbatida sohada o'z muammolarini namoyon etdi.

Ta'kidlash kerakki, birgina 2019-yilda turizm maskanlariga xorijiy turistlarning tashrifi milliy iqtisodiyotlar tomonidan qo'shimcha 1500 mlrd. so'm, hajmida tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilishini rag'batlantirgan hamda shuncha hajmdagi xorijiy valyuta kirimini ta'minlagan. 2020-yil xalqaro turizmga xizmatlar eksporti koronavirus pandemiyasi tufayli keskin tushib ketgan. Shunga mos ravishda xalqaro turizmga turistlar soni

deyarli Ikkinchi jahon urushidan keyingi bosqichga tushib qolgan.

Shuningdek, turizm sohasining yuqori multiplikativ samaradorlikka ega bo'lganligi inobatga olinsa, turizm industriyasiga yondosh sohalarni rivojlantirish, bu orqali esa milliy iqtisodiyotlarni diversifikatsiya qilish imkoniyatining mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Turizm sohasini rivojlantirish va undan yuqori natijadorlik olish milliy iqtisodiyotda turizm industriyasini shakllantirishni talab etadi. Turist ehtiyojini to'laqonli qondirish doirasida turizm sohasi sanoatida birlamchi xizmatlar (joylashtirish, transport, ovqatlanish, savdo) hamda sayohat maqsadidan kelib chiqib maxsus (madaniy, ko'ngilochar, dam olish, ijtimoiy) va qo'shimcha xizmatlar tashkil etiladi. Bu esa doimiy ravishda sohada yangi faoliyat turini yuzaga kelishi hamda yondosh tarmoqlarning rivojlanib borishini taqozo etadi.

Buning natijasida esa turizm sohasining iqtisodiyotga bevosita samarasi bilan bir qatorda bilvosita, ya'ni multiplikativ samarasi vujudga keladi. Turizmning multiplikativ samarasi shundan dalolat beradiki, "sarflangan xarajatlar – olingan daromadlar" zanjirli reaksiyasi natijasida bitta turistdan olingan jami daromad uning xizmat va tovarlarni sotib olishga sarflagan pul miqdoridan ko'proqni tashkil qiladi. Turizm xizmatlarini ko'rsatishdan olinadigan daromad multiplikatori ko'rsatkichi mamlakat yoki mintaqaga qarab 4 barovargacha farqlanadi. Xususan, qo'shimcha 1 dollar hajmidagi xorijiy turistlarga ko'rsatilgan turizm xizmatlari va sotilgan tovarlar mamlakat iqtisodiyotiga 4 dollar hajmida ishlab chiqarishni rag'batlantirish hamda 9 dollar miqdorida bevosita va ikkilamchi daromad keltirishi mumkin. Ushbu qo'shimcha

turistik xarajatlar 1,2 mingta qo‘shimcha ish o‘rinlarini va 0,3 mingta ikkilamchi ish o‘rinlarini yaratilishiga olib keladi. Shundan kelib chiqib, turizm sohasining ishlab chiqarish multiplikatori daromad multiplikatori 0,9 va bandlik multiplikatori 1,5 ga teng [12].

Turizmning ushbu salohiyati tufayli sohani rivojlantirish iqtisodiyotning transport, aloqa, savdo, qurilish, qishloq xo‘jaligi, iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish kabi muhim tarmoqlarini rag‘batlantirishda va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi o‘n yil mobaynidagi ko‘rsatkichlar tahlili turizm sohasining ish o‘rni yaratishda muhim omillardan biriga aylanganligidan dalolat beradi. 2022-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, turizm sohasida band bo‘lganlar soni 315 million kishidan ortiqni tashkil etib, jahon mehnat bozorida har o‘ninchi ish o‘rni turizm sohasiga to‘g‘ri keladi. Turizm sohasida ish o‘rinlari soni iqtisodiyotning boshqa sohaslariga nisbatan 1,5 barobar tezroq o‘smoqda. So‘nggi 3 yil mobaynida tashkil etilgan har to‘rtinchi yangi ish o‘rni turizm sohasiga to‘g‘ri keladi (1-jadval).

**1-jadval. Jahon turizm bozorining asosiy ko‘rsatkichlarining o‘zgarish tendensiyasi**

	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
<b>Turizm tarmog‘ida band bo‘lganlar soni (mln.kishi)</b>	264	270	274	281	287	296	303	311	318	330	272	310	315
<b>Dunyo bo‘yicha bandlikdagi turizm ulushi (foiz)</b>	9,1	9,2	9,2	9,4	9,4	9,6	9,8	9,9	10,0	10,0	9,0	9,1	9,3

Uncha ko‘p talab etmaydigan investitsiya bilan mazkur sohada tadbirkorlik boshlash imkoniyati mavjud bo‘lgan va bu sohadagi tadbirkorlik faoliyatiga kiritilgan mablag‘ning nisbatan qisqa muddatlarda o‘zini oqlashi, shuningdek, turizm xizmatlariga bo‘lgan etiyohlarning ortishi va sohadagi tadbirkorlikda yangi ish o‘rnining yaratilishi o‘rtasida qisqa muddatni talab etishi mazkur sohaning ish o‘rni yaratishdagi salohiyatini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, turizm sohasidagi yangi ish o‘rinlari va korxonalar, asosan, rivojlanayotgan hamda tabiiy boyliklari oz bo‘lgan mamlakatlarda tashkil etilayotganligi iqtisodiy o‘shish imkoniyatini muvozanatlashtirishga imkon beradi. Xalqaro turizm bozoridagi kuchli raqobat sharoitida turistlar uchun maqbul shart-sharoit yaratish maqsadida turizm infratuzilmasiga zaruriy investitsiyalar kiritilishi mahalliy aholining yashash sifatini yaxshilanishga xizmat qiladi.

Shuningdek, turizm sohasining aholi bandligi va yangi ish o‘rinlari yaratilishidagi sezilarli ulushi, bunda, ayniqsa, ayollar va yoshlar hamda qishloq hududlarini qamrab olishi mazkur sohaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini belgilab beradi.

Turizm sohasining o‘shishi iqtisodiy o‘shish bilan musbat yuqori korrelyasiyaga ega bo‘lgan soha bo‘lib, iqtisodiy o‘shishga katta rag‘bat beradi.

Shuningdek, Butunjahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2019-yilda turizm sohasi 3,5 foizga o‘shib, jahon iqtisodiyotidagi ulushi jami 8,9 trillion dollarni yoki jahon yalpi mahsulotining 10,3 foizini tashkil etdi. 2011-yildan buyon 3,5 foizdan kam bo‘lmagan o‘shish ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan hamda sog‘liqni saqlash, axborot texnologiyalari kabi sohalarga nisbatan jadal o‘sgan dunyodagi uchinchi eng tez rivojlanadigan soha hisoblanadi (2-rasm). 2009-yildagi jahon iqtisodiy inqirozidan 2020-yilda boshlangan koronavirus

pandemiyasi natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy holatgacha bo'lgan o'n yil davr mobaynida turizm jahon iqtisodiyotining boshqa tarmoqlariga nisbatan salmoq hamda o'sish darajasi jihatidan qiyosiy ustunlikka ega bo'lgan. Turizm xizmatlari eksporti kimyo mahsulotlari va neft mahsulotlaridan keyin jahon eksportining eng yirik uchta tarmoqlaridan biri bo'lib, tovarlar eksportiga nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishi kuzatilgan. Xususan, 2019-yilda turizm

Shunday ekan, turizm iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi va yuqori qo'shilgan qiymat yaratish salohiyatiga ega bo'lgan tarmoqlararo soha sifatida shakllanib bormoqda.

So'nggi yigirma yil mobaynida dunyoda kuzatilgan bir qator tabiiy va texnogen inqirozlar tahliliga ko'ra, turizm sohasi tashqi ta'sirlardan birinchi navbatda katta ziyon ko'radi hamda inqirozdan chiqish jarayonida iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan qisqa vaqt ichida va kam resurs asosida tiklanish salohiyatiga ega.


xizmatlari eksporti hajmi 4 foizga o'sgan bo'lsa, tovarlar eksporti o'sish ko'rsatkichi 3 foizni tashkil qilgan [13].

Turizm qo'shimcha ish o'rinlari yaratishning asosiy omillaridan biri bo'lib, yo'l va mehmonxona qurilishi rivojini tezlashtiradi, barcha turdagi transport vositalari ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, xalq hunarmandchiligi va mintaqalar va mamlakatlarning milliy madaniyatini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Turizmga ta'sir etuvchi har qanday inqiroz qisqa fursatda ish o'rinlarining qisqarishi, tadbirkorlar faolligining pasayishi va daromadlarining kamayishi, davlat uchun soliq tushumlarining va turizm sohasiga kiritiladigan investitsiya hajmining tushib ketishiga olib keladi.

Shu bilan bir qatorda, turizm sohasining tez moslashuvchanligi sababli iqtisodiyotning boshqa sohalariga qaraganda inqirozlardan chiqishi va tiklanishi uchun nisbatan qisqa vaqt talab etiladi. Turizm sohasining o'sish tendensiyasidan ko'rish mumkinki, har bir inqirozdan keyin turizm sohasi barqaror o'sish ko'rsatkichlarini qayd etgan.

**2 - rasm. Jahon yalpi mahsuloti va turizm sohasi daromadlarining so'nggi yillar davomida o'sish dinamikasi<sup>2</sup> (foizda)**



<sup>2</sup> UNWTO. (2020). UNWTO World Tourism Barometer, 2008 Edition. Available at: <https://www.e-unwto.org/doi/book/10.18111/9789284424160>, <https://www.e-unwto.org/toc/wtobarometereng/21/2>



2000-yilning boshida kuzatilgan iqtisodiy turg'unlik va 2009-yildagi moliyaviy-iqtisodiy inqirozlarda jahon iqtisodiyotining va turizm sohasining pasayishi bilan bir qatorda inqirozlardan keyin tez tiklangan va barqaror o'sishda davom etgan.

Xususan, XXI asrning boshidan buyon kuzatilgan inqirozlar ichida 2019-yildagi ijtimoiy inqiroz iqtisodiyot tarmoqlariga, shu jumladan, turizm sohasiga katta salbiy ta'sir ko'rsatgan. Xususan, ushbu inqiroz ta'sirida 2020-yilda xalqaro turistlar soni, xalqaro turizmdan ko'riladigan daromadlar pasayishi kuzatilgan. Keyingi ikki yil mobaynida turizm sohasida avvalgi ko'rsatkichlarga qaytish va rivojlanish jarayonlari sodir bo'ldi.

2020-yilning 11-mart kuni Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan pandemiya deb e'lon qilingan COVID-19 infeksiyasi tarqalishi jahon iqtisodiyoti, ayniqsa, turizm sohasiga katta salbiy ta'sir ko'rsatmoqda hamda so'nggi yigirma yil davomida bo'lib o'tgan 90 tadan ortiq turli ko'lamdagi inqirozlar ichida ko'lami va darajasi jihatidan eng salmoqlisi bo'ldi. Mazkur pandemiya oqibatida jahon turizm bozorida ish o'rinlari qisqardi va iqtisodiy ziyon hajmi sezilarli oshdi. Xalqaro valyuta jamg'armasi baholashicha, COVID-19 pandemiyasi oqibatida jahon iqtisodiyoti 2009-yildagi kabi retsessiya holatiga keldi. Bunda turizm sohasi eng katta ziyon ko'rgan sohalardan bo'ldi. Jumladan, xalqaro sayohatlar soni 2019 yilga 1,5 milliardga nisbatan 74%ga kamaydi va 380 milliontani tashkil qilgan bo'lsa, turizm xizmatlari eksporti hajmi esa 2019 yildagi 1,7 trillion dollardan 406 milliard dollorgacha pasaydi.

Turizm sohasining inqiroz holatlaridan tez tiklanuvchi va o'zining yuqori multiplikativ samarasi orqali iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini

rivojlanishiga impuls berishi salohiyatidan kelib chiqib, xalqaro tashkilotlar va hukumatlar tomonidan inqiroz sharoitida ushbu sohani qo'llab-quvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xorijiy mamlakatlar tomonidan pandemiya asoratlari yumshatish hamda turizm sohasi subyektlarining tiklanish jarayonini tezlashtirish maqsadida fiskal instrumentlar, soliq imtiyozlari soliq ta'tillari vositasida rag'batlantirish choralari ko'rilmoqda [14].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, turizm sohasi jahon va milliy iqtisodiyotlar uchun iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, valyuta tushumi va ijobiy to'lov balansini ta'minlash, tadbirkorlik faolligini oshirish va bandlikni ta'minlash, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, turizm sohasiga xizmat qiluvchi tarmoqlarni tashkil etish va soha bilan bog'liq tarmoqlarni rivojlanishini rag'batlantirish salohiyatiga ega muhim sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohani rivojlantirish esa alohida yondashuvni talab etadi.

Shularni nazarda tutgan holda keyingi vazifalar turizm faoliyatini rivojlantirishda soliqqa tortishning zamonaviy tizimi qo'llash, soliq imtiyozlarini qo'llashning konseptual asoslarini tadqiq etish va turizmni soliq vositalari orqali rag'batlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani o'rganishdan iborat bo'ladi.

**Munozara.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori v)bandida keltirilganidek "aholisi 300 mingdan kam bo'lgan tumanlarda: sanoat va xizmatlar sohasi yuqori sur'atlarda rivojlanib borayotgan tumanlarda — savdo, mehmonxona, ovqatlanish va logistika xizmatlarini, shuningdek, texnik xizmat ko'rsatish va ko'ngilochar maskanlarni tashkil etishga ustuvorlik berish; tog'li, tog'oldi, rekreatsion turizm salohiyati yuqori



tumanlarda — avtomobil yo'llari, elektr energiyasi va ichimlik suvi ta'minoti hamda boshqa infratuzilmani yaxshilash va tayyor loyihalar asosida turizm xizmatlarini rivojlantirish" muxim masala hisoblanadi.

Shuningdek, 2022-yil 1-apreldan 2025 yil 1 yanvarga qadar chakana savdo va umumiy ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish) xizmatlari, avtotransportda yo'lovchi va yuk tashish, transport vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish, kompyuter xizmatlari, maishiy texnikani ta'mirlash, agro va veterinariya xizmatlarini ko'rsatuvchi hamda ko'ngilochar maskanlarda xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz etib belgilash turizm sohasini rivojlanishiga turtki bo'ladi.

**Xulosa.** Tadqiqotchi tomonidan turizm sohasi subyektlarining soliq yuki kamayishiga ijobiy ta'sir qiluvchi amaldagi samarali soliq imtiyozlari berish, aholisi 300 mingdan kam bo'lgan tumanlarda sanoat va xizmatlar sohasi yuqori sur'atlarda rivojlanib borayotgan tumanlarda mehmonxona, ovqatlanish va logistika xizmatlarini, shuningdek, texnik xizmat ko'rsatish va ko'ngilochar maskanlarni tashkil etishga ustuvorlik berish hamda rekreatsion turizm salohiyati yuqori tumanlarda avtomobil yo'llari, infratuzilmani yaxshilash va turizm xizmatlarini rivojlantirish, mehmonxona xizmatlari, avtotransportda yo'lovchi va yuk tashish, transport vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish, ko'ngilochar maskanlarda xizmatlar

ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz etib belgilash yuzasidan takliflari inobatga olingan. Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlariga mehmonxona va maydoni 5 ming kvadrat metrdan yuqori bo'lgan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i va yuridik shaxslarning mol-mulki stavkalarini 90 foizga kamaytirish. Bundan tashqari yangidan quriladigan ob'ektlarga nisbatan imtiyozni ular foydalanishga topshirilgan oydan boshlab 5-yil muddat davomida qo'llash, foyda solig'ini binolarning qiymatini 2-yil davomida amortizatsiya xarajatlari sifatida chegirish, turizm hududlarida ro'yxatdan o'tgan, mehmonxona, turoperator va turagent xizmatlarini ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari aylanmadan olinadigan soliq stavkasini 1 foizga, egallagan yer uchastkasi bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga va yer solig'i miqdorlarini hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida belgilash yuzasidan bergan takliflari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-son qarorida tasdiqlanib amaliyotga joriy etildi. Mazkur taklif natijasida Respublikada 241 ta joylashtirish vositasi va turoperatorlarga ish joylarini saqlab qolish uchun 16,1 mlrd so'm miqdorida foizsiz ssuda ajratilgan; turizm sohasidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish davom ettirilishi natijasida 126 ta mehmonxona va joylashtirish vositasi foydalanishga topshirilgan va xonalar soni 3 mingtaga ko'paygan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Butunjahon sayohat va turizm kengashi va Jahon banki ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
2. Korzun R. M. Mejdunarodnyy turizm // «Ekonomika APK: problemy i resheniya» - 2011. - 673 s.
3. Brida J. G., Cortes-Jimenez I. & Pulina M. (2014). Has the tourism-led growth hypothesis been validated? A literature review. *Current Issues in Tourism*
4. UNWTO. (2020). UNWTO World Tourism Barometer, 2008 Edition. Available at: <https://www.e-unwto.org/doi/book/10.18111/9789284424160>, <https://www.e-unwto.org/toc/wtobarometereng/21/2>
5. Shapoval G.F. Istoriya turizma: Ucheb, posobie. - Mi.: Ekoperspektiva, 1999;
6. Makarenko S.N., Saak A.E. Istoriya turizma: Sbornik. - Taganrog: Izd-vo TRTU, 2003. - 12 s.;
7. Saprunova V.B. Turizm: evolyusiya, struktura, marketing. - M.: «Os-89», 2014. - 160 s.;
8. Lickorish L.J. & Jenkins C.L. (2011) *An Introduction to Tourism*. New York: Routledge;
- Jayapalan N. (2001). *An Introduction to Tourism*. New Delhi: Atlantic Publishers and Distributors.
9. Mejdunarodnye rekomendatsii po statistike turizma YUNWTO (MPCT2008). Statisticheskie dokument. Seriya M № 83, Madrid, Nyu-York, 2008.
10. Abdullaev Z.S. Turizm faoliyatini rivojlantirishning milliy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati. // "Iqtisod va moliya" ilmiy-amaliy jurnal, 2020y, №4(136).- B.47-54.
11. Abdullayev Z. S. Comparative Analysis of Development of Taxations System of Tourism. // *Jurnal nauchnyx i prikladnyx issledovaniy. Nauchno-prakticheskiy jurnal №2 / 2020*. Adres v Internet: [www.gnpi.ru](http://www.gnpi.ru) E-mail: [gnpi.public@gmail.com](mailto:gnpi.public@gmail.com) ISSN 2306-9147.
12. Abdullayev Z.S. Analysis the Problem of Taxation in the Tourism Sektor in the World // *Researcher 2020; 12(4):59-62.*— ISSN 1553-9865 (print); ISSN 2163-8950 (online). <http://www.sciencepub.net/researcher>. 5. doi:10.7537/marsnsj120420.05.
13. Abdullayev Z.S. Taxes on the financial stability of the subjects of tourist activities // *Nat Sci 2020; 18(8):54-63.*— ISSN 1545-0740 (print); ISSN 2375-7167 (online). <http://www.sciencepub.net/nature>. 7. doi:10.7537/marsnsj180920.07.
14. Abdullaev Z.S. Turizm faoliyatini soliqqa tortishning iqtisodiy-huquqiy asoslari. // "Iqtisod va moliya" ilmiy-amaliy jurnal, 2021y, №2(138).- B.39-47.